



“MUSAXXIR AL-BILOD” — XVI–XVII ASR O‘RTA OSIYO TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Xatambekov Lazizbek Farhod o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya *Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an tomonidan yaratilgan «Musaxxir al-bilod» asari Shayboniylar va ilk Ashtarxoniylar davri siyosiy, harbiy va sulolaviy tarixini yorituvchi noyob manbadir. Asarda muallif tarix ilmini insonlarni omiylikdan chiqaruvchi vosita sifatida talqin qilib, o‘tmish voqealarni tizimli va ixcham shaklda bayon etgan. Ushbu maqola «Musaxxir al-bilod»ning yozilish tarixi, tuzilishi, manbalari va O‘rta Osiyo tarixshunosligidagi ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Shayboniylar sulolasi, Ashtarxoniylar sulolasi, O‘rta Osiyo, Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an, Musaxxir al-bilod, tarixshunoslik, sulolaviy tarix, harbiy yurishlar, Buxoro xonligi, manbashunoslik tarixi, XVI–XVII asr, qo‘lyozma manbalar.*

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida O‘rta Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlar, xususan Shayboniylar sulolasining inqirozi va Ashtarxoniylar hukmronligining boshlanishi davri tarixshunoslikda murakkab va kam yoritilgan bosqichlardan biridir. Mazkur davr voqealarini yorituvchi muhim manbalardan biri Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an tomonidan yaratilgan «Musaxxir al-bilod» asaridir. Ushbu asar Shayboniy hukmdorlarining harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati va sulolaviy tarixini yoritishi bilan birga, muallifning tarix faniga bergan nazariy qarashlari bilan ham ahamiyatlidir.

Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an asar muqaddimasida tarix yozishdan ko‘zlangan asosiy maqsadni zamondoshlarni o‘tmish voqealari bilan tanishtirish, ularning tarixiy tafakkurini kengaytirish deb izohlaydi. Muallif tarix ilmini insonni



omiylikdan chiqaruvchi, uni anglash va idrok yo'liga boshlovchi ilm sifatida baholaydi.

Muallif insonlarni uch toifaga ajratadi:

- 1.oxirat va ilohiy haqiqatni izlovchilar,
- 2.saltanat va dunyoviy hokimiyat sohiblari,
- 3.har ikkala yo'ldan bexabar bo'lgan omiylar.

Tarix ilmini o'rganish esa uchinchi toifadan chiqib, yuksak darajaga erishishning eng samarali vositasi sifatida talqin etiladi[1]. Shu asosda muallif tarixga quyidagicha ta'rif beradi: tarix — nodir va muhim voqealarni yozib borish yoki ilgari yaratilgan xabarlarini muayyan mavzu asosida tartibga solish ilmidir.

Asarda keltirilgan voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif Abdullaxon II (1557–1598) davrida tug'ilib voyaga yetgan va Valimuhammadxon (1605–1611) hukmronligidan keyin ham hayot bo'lgan. Asarda 1603–1608 yillarda sodir bo'lgan siyosiy voqealar, jumladan qalbaki shayboniy sultonlar bilan bog'liq hodisalarning zikr etilishi muallifning XVII asr boshlarigacha yashaganini ko'rsatadi[3]. Shu asosda Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning taxminan 1560-1570 yillarda tug'ilib, 1610-yillardan keyin vafot etgani ehtimol qilinadi.

Muallifning o'zi ko'rsatishicha, «Musaxxir al-bilod» muqaddima va olti bobdan iborat bo'lgan. Biroq bizgacha asarning faqat muqaddima va to'rt bobigina yetib kelgan.

Muqaddimada Dashti Qipchoq hududlari, ko'chmanchi o'zbeklar va Abulxayrxon faoliyati yoritilib, Shayboniylar sulolasining siyosiy ildizlari ochib beriladi.

Birinchi bob. Shoh Budog' sulton ibn Abulxayrxon, Muhammad Shayboniyxon va uning farzandlari tarixiga bag'ishlangan.

Ikkinchi bob. Ko'chkunchixon ibn Abulxayrxon va uning avlodi siyosiy faoliyati bayon etiladi[2].

Uchinchi bob. Sevinchxo'jaxon ibn Abulxayrxon hamda uning nasliga oid ma'lumotlar jamlangan.



To'rtinchi bob. Xoja Muhammad (Xojag'um) sulton, uning avlodlari va Shayboniylar davrining eng qudratli hukmdori Abdullaxon II hayoti va harbiy yurishlari keng yoritilgan.

Beshinchi bob Abdulmo'minxon hukmronligi, oltinchi bob esa Buxoro shahri, uning avliyolari, shayxlari va ulamolariga bag'ishlangan bo'lgan[4].

«Musaxxir al-bilod»da Shayboniyyon davrigacha bo'lgan voqealar asosan «Boburnoma», «Habib as-siyar», «Shayboniynoma», «Tavorixi guzida, nusratnoma» kabi asarlarga tayangan holda bayon etilgan. Biroq muallif bu ma'lumotlarni mexanik ko'chirmay, ularni ixchamlashtirib, yangi tizimda taqdim etgan.

Ayniqsa, Ko'chkunchixon, Sevinchxo'jaxon va Xoja Muhammad sulton avlodlariga bag'ishlangan alohida boblar boshqa manbalarda bu darajada yaxlit va izchil berilmaganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, Abdulmo'minxon va Ashtarxoniylar davriga oid ma'lumotlar «Musaxxir al-bilod»ning original manba ekanini tasdiqlaydi[5].

O'rta Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati. «Musaxxir al-bilod» quyidagi jihatlar bilan O'rta Osiyo tarixshunosligida muhim o'rin tutadi:

- Shayboniylar sulolasining genealogiyasi va ichki siyosiy kurashlarini yoritadi;

- XVI–XVII asrlar o'tish davri uchun noyob ma'lumotlar beradi;

- Harbiy yurishlar va hududiy kengayish tarixini o'rganishda muhim manbadir;

- O'zbek tarixnavisligida sulolaviy-tizimli yondashuvning yetuk namunasi hisoblanadi[6].

Xulosa qilib aytganda, Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning «Musaxxir al-bilod» asari Shayboniylar va ilk Ashtarxoniylar davri tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manbalardan biridir. Asarning to'liq nusxasi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, mavjud qo'lyozma nusxalar undagi tarixiy ma'lumotlarning boyligi, muallifning keng dunyoqarashi va tarixiy tafakkurini yaqqol namoyon etadi. Ushbu



asarni ilmiy muomalaga kengroq jalb etish O'rta Osiyo tarixshunosligini yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. Qo'lyozma manbalar. Toshkent. 2009. 4-5, 92-95-b.
2. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullohnoma (Sharafnomayi shohiy). Toshkent, 1997. 245-260-b.
3. Ahmedov B. O'rta Osiyo tarixshunosligi. Toshkent, 2001. 134-142-b.
4. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent, 1990. 215-227-b.
5. Xondamir. Habib as-siyar. Tehron, 1954. 98-115-b.
6. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Toshkent, 1996. 187-195-b.